

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi 2022-yilda 4 millioninchi yo'lovchini o'z manziliga yetkazdi

2022 15 Dekabr

Bugun, 15-dekabr kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tantanali tarzda 4 millioninchi yo'lovchisi bo'lgan Shaxnoza Yo'ldoshevani kutib oldi. Yubiley yo'lovchisini tantanali tabriklash marosimi Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroportida bo'lib o'tdi. Unga Uzbekistan Airways yo'nalishlari tarmog'ining istalgan yo'nalishi bo'yicha bepul biznes-klass aviachiptasi uchun sertifikat taqdim etildi.

To'rtmillioninchi yo'lovchi Shaxnoza Yo'ldosheva o'zining taasurotlari bilan bo'lishdi: "Men to'rtmillioninchi yo'lovchi bo'lishni kutmagan edim. Aviakompaniyaning 4 millioninchi yo'lovchisi bo'lganimdan bag'oyatda hursandman. Kutilmagan syurpriz uchun Uzbekistan Airways'ga katta rahmat. Sevimli aviakompaniyam bilan keying safar qayerga parvoz qilishni albatta bilaman".

Ta'kidlash joizki, aviatashuvchining yo'nalishlar tarmog'ini kengaytirishi hisobiga 2022-yil ko'rsatkichlari pandemiyagacha bo'lgan davrdagi statistikani qaytardi. 2022-yilda Uzbekistan Airways yo'lovchilari Sochi, Boku, Parij, Tokio, Milan, Rim va Kuala-Lumpur kabi shaharlarga aviaparvozlarning qayta tiklanganligi munosabati bilan u yerlarga sayohat qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Shuningdek, Uzbekistan Airways Batumi, Irkutsk va Sharm-al-Shayx shaharlariga ilk aviaparvozlarni yo'lga qo'yib, o'z yo'nalishlar tarmog'ini kengaytirdi. Yo'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida London, Nyu-York, Sharja, Seul, Sharm-al-Shayx, Sochi va dunyoning boshqa shaharlariga parvozlarni ko'paytirildi.